



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

TAFAKKUR MUAMMOSI VA UNING YOSH DAVRLARIDA RIVOJLANISHI

Baxmal pedagogika kolleji

o'qituvchisi

Sarimsoqova Muhayyo

Jizzax davlat pedagogika universiteti

2- bosqich talabasi

Qarshiyeva Xadicha

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda tafakkur muammosi va uning yosh davrlarida rivojlanishi haqida yoritilgan bo'lib, bolalar tafakkuri ularning turmush tajribalarining orta borishi, turli xil narsalarga doir bilim va tushunchalarining ko'payishi bilan bog'likligi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lif, bolalarda tafakkur muammosi, malaka, bilim, mashq, yosh davrlari, maktabga tayyorlov, maktabgacha yosh.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lif tizimining barcha bo'g'inlarida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar tufayli bolani qarab, boqib turadigan tashkilotdan, haqiqiy ta'lif-tarbiya maskaniga aylandi. hozirda ushbu bog'inda bola ta'lifi va tarbiyasining har qanday masalalariga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bolalar tafakkurining rivojlanganligi yaxshi ta'lif tarbiya olganligida namoyon bo'ladi.

Bola tug'ilishidanoq tafakkur qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Tafakkur bolaning o'sib, bilim va tajribalarining ortib borishi jarayonida rivojlanadi. Bola (chaqaloq) dastlab tashqi olamni va undagi narsalarni sezish, idrok qilish orqaligina biladi. Bunday bilish bolaning ana shu narsalar bilan bo'lgan aktiv faoliyati davomida tobora takomillashib boradi. Kichiq yoshdagi bolalar atroflaridagi narsalar bilan qanchalik ko'p munosabatda bo'lsalar bu narsalar o'rtasidagi o'xshash tomonlarni shunchalik ko'proq payqay boshlaydilar. Keyinchalik bolalar o'xshash narsalarni umumlashtira boshlaydilar. Masalan, 6-7 oylik bola uyda yolg'iz qolgan paytida stol oldiga emaklab kelib, dasturxonni tortib o'ziga kerakli narsalarni olishga muvaffaq bo'lar ekan, xuddi shunday yo'l bilan karavotning ustidagi narsalarni ham olishga harakat qiladi. U dasturxonni tortgan kabi choyshab yoki ashyoni tortib karavot ustidagi narsalarni olishga urinib ko'radi. Ilk bolalik yoshidagi bolalarning tafakkuri o'z-o'zicha, ya'ni stixiyali ravishda emas, balki katta odamlarning rahbarligida rivojlnana boshlaydi. Katta odamlar bolalarning shu paytgacha orttirgan



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

bilimlariga asoslanib, ularning o'zлari mustaqil egallay olmaydigan tushuncha va bilimlarni o'zlashtirib olishlarida yordamlashadilar.

Ana shu tariqa bolalar o'zlarining individual faoliyatlari orqali bilish mumkin bo'lgan ayrim narsalarni va ayrim tushunchalarnigina emas, balki butun insoniyat tomonidan yaratilgan tushunchalarni hamda mantiqiy fikr qilish shakllarini ham egallab ola boshlaydilar. Bolalarda tafakkur bir yoshga to'lib, ikki yoshga qadam qo'ygan davrdan boshlab namoyon bo'la boshlaydi. Ana shu davr mobaynida, birinchidan bolalar anchagina turmush tajribasiga ega bo'ladilar, ikkinchidan ularning tili chiqa boshlaydi. Bolalar bir yoshdan oshgach, o'zlariga yaqin narsalarning nima uchun kerakligini tushunadigan bo'lib qoladilar (masalan, uydagi idish-tovoqlar, piyola va qoshiqlarning nimaga kerakligini bilib oladilar).. Masalan, bir yarim yoshli bola olmani, koptokni, yog'ochdan qilingan yumaloq sharni umumlashtirib, ularning hammasini olma deb ataydi. Shunday qilib, kichiq yoshdagagi bolalarda tafakkur ularning turmush tajribalarining orta borishi, turli xil narsalarga doir bilim va tushunchalarning ko'payishi hamda nutqning rivojlanishi jarayonida takomillashib boradi. Tafakkur bolaning bog'cha yoshdagagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshdagagi bolalarda turmush tajribasining anchagina ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining nisbatan yaxshi o'sgan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'chada harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Bog'cha yoshdagagi bolalar o'zlarining mustaqil harakatlari davomida atroflaridagi turli xil naisalar bilan bevosita taqqoslash, analiz qilish va nihoyat umumlashtirish kabi fikr qilish jarayonlarini vujudga keltiradi va takomillashtiradi. Bolaning bog'cha yoshdagagi davrida uning erkin harakat qilish maydoni yasli yoshdagagi daviga nisbatan juda ham kengayib ketadi. Bu esa tafakkurning rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga egadir.

Tevarak-atrofdagi odamlar bilan doimiy gaplashib turish sharoitida tarbiyalangan bolalarning nutqidagi so'z boyligi esa ular ikki yashar chog'ida 285 taga, uch yashar chog'ida esa 2050 taga yetadi. Bolalarda so'z boyligi ko'paya borgan sari ular nutqining sifat jihatni ham rivoj topaveradi, so'zlarining ma'nosini tushunishlari ham rivoj topaveradi. Ko'pincha bola tasodifiy belgilari qarab, ba'zi so'zlarga butunlay boshqacha ma'no beradi.

Ikki yarim yoshdan besh yoshgacha bo'lgan bolalarning o'zicha so'z yasay boshlashi maktabgacha tarbiya yoshida bo'lgan bolaning kattalardan eshitgan so'zlarinigina takrorlab qolmasdan, balki, shu bilan birga, grammatika shakllarini haqiqatdan egallay borganliklarni ko'rsatuvchi belgidir. Bu so'z yasash shundan



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

iborat bo'ladiki, shu yoshdagi bolalar o'zlari bilgan so'zlarning shakllariga o'xshatib so'z tuza boshlaydilar.

Bolalar to'g'ri tarbiyalanib borganlarida, ayniqsa, mактабгача yoshiga yetganlarida, ularda tilning grammatika shakllarini amaliy ravishda egallash juda tez qadam bilan olg'a qarab boradi. Nutqning tuzilishidagi bu murakkab shakllar tafakkurning murakkabroq shakllari o'sib borishiga bog'liqdir. Bolalarda nutq o'sishining ana shu bosqichida hodisalarning sabablari va bir-biriga bog'lanishi to'g'risida turli savollar tug'ilaveradi. Shu yoshdagi bolalar kattalardan muttasil: «Nega?», «Nima uchun?» deb so'rayveradilar.

Mактабгача yoshidagi bolalar konkret faol tafakkurga o'tadilar, buning uchun avvalo yetarli so'z lug'ati talab etiladi. Bu esa o'z navbatida bolalarni faol ravishda nutq iboralarini o'zgartira boshlaydilar. Endi so'zlar faqat aniq narsalar bilangina emas balki boshqa bir guruh so'zlar bilan va bevosita harakatlar bilan bog'lana boshlaydi.

Mактабгача yoshida bolalarda bilish jarayonining o'sishi tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida mavjud bo'lgan turli tuman bog'lanishlarni, munosabatlarni tobora anglash tufayli amalga oshiriladi. Tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlar hamda munosabatlar ona tilini chuqur va mukammal o'zlashtirish orqali aks ettiriladi. Shuning uchun bu davrda ona tilining so'zlarining grammatik tuzilishi to'liq egallashga jiddiy e'tibor berish lozim.

Bolalar tafakkurining o'zgarganligi ularda asoslangan umumlashtirishning yuzaga kela boshlashida ko'rinish turadi. Shu bilan bir qatorda bolalarning tuzgan so'zlarida bog'lovchilar paydo bo'la boshlaydi.

Ota-onalar, tarbiyachilar albatta bu xolni xech qachon e'tibordan chetda koldirmasliklari lozim. Bolalar bilan munosabatda bo'lganda ularning gapirish, jumla tuzish uslublariga moslashmasdan, xamisha to'g'ri va tula gapirishga odatlantirish lozim. Buning muhim tomoni shundaki, bolalar o'zlarining taqlidchanliklari tufayli kattalarning gapiga, jumla tuzishga ergashadilar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Nig'matov A.N. Ekologiya / Asosiy atama va iboralarning izoxli lugati. - T.: «Bioekosan» nashriyoti, 2001.
- 2.Ziyomuhamedov B. /Ekologiya va ma'nnaviyat.- T.: «Mehnat» nashriyoti,1997.
- 3.To'xtaev A.S. Ekologiya / Pedagogika institutlarining talabalari uchun o'quv qu'llanma. - T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 2001.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

4.O.Xasanboeva va boshqalar/ Pedagogika tarixi. Qo'llanma-T.: "O'qituvchi" 1997.

5.Eshbekova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarga yozishni o'rgatish vazifasini amalga oshirishda o'yinlardan foydalanish. journal of innovations in social sciences.: 01 | Jan - 2023 ISSN: 2181- Volume: 03 Issue 2594

6.Eshbekova G.Bolalarni mакtabga tayyorlashning yozishga o'rgatish bosqichida psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olish masalasi.